



Received: April 5, 2026
Accepted: May 24, 2026
Available online: May 25, 2026

Layloxon Nabiyeva

Tayanch doktorant
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OTA-ONA VA FARZAND O'RTASIDAGI MULOQOTDA BUYRUQ AKTINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida ota-ona va farzandlar o'rtasidagi direktiv nutqiy aktlarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Direktivlar buyruq, iltimos, ko'rsatma, taqiq va ogohlantirishlarni o'z ichiga oluvchi illokutiv kuch turi sifatida oilaviy muloqotda markaziy o'rinni egallaydi, chunki aynan direktivlar orqali ota-onalar farzandlarining xatti-harakatlarini boshqaradilar hamda avlodlararo axloq me'yorlarini ularga o'rgatadilar. Lingvistik jihatdan har bir til buyruqni o'ziga xos grammatik vositalar orqali ifodalasa-da, pragmatik jihatdan bir xil niyat turli vaziyatlarda turlicha amalga oshiriladi va bu madaniyat me'yorlariga bog'liq bo'lib, bir-biridan farq qiladi.

Tadqiqot J.Ostinning nutqiy aktlar nazariyasi va J.Syorlning illokutiv taksonomiyasiga tayanib, 120 ta direktiv ifodani (ingliz tilida 60 ta, o'zbek tilida 60 ta) sifatli diskurs tahlili, pragmatik matn tahlili va kommunikativ niyat tahlili metodlari orqali o'rganadi. Tahlil to'rt asosiy yo'nalishni qamrab oladi: bevosita imperativ direktivlarning morfositaktik belgilari, yumshatish strategiyalari, bilvosita buyruq akti va hissiy-direktiv gibrid ifodalar. Tadqiqot jarayonida sifatli va miqdoriy metodlar qo'llanilib, ularning birgalikdagi tatbiqi direktiv nutqiy aktning lingvistik shakli, kontekstual ma'nosi va so'zlovchi niyati o'rtasidagi murakkab munosabatlarni har tomonlama ochib berish imkonini yaratdi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, bevosita imperativlar o'zbek tilida ingliz tiliga qaraganda

Laylokhon Nabiyeva

PhD Student
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
mail: layloxonyuldasheva@gmail.com
ORCID iD: 0009-0007-7982-0253

PRAGMATIC CHARACTERISTICS OF THE COMMAND SPEECH ACT IN PARENT-CHILD COMMUNICATION IN ENGLISH AND UZBEK

ABSTRACT

This article presents a contrastive pragmalinguistic analysis of directive speech acts in English and Uzbek parent-child discourse. As an illocutionary act type encompassing commands, requests, instructions, prohibitions, and warnings, the directive occupies a central position in family interaction: it is through directives that parents regulate children's behavior and transmit intergenerational normative expectations. Linguistically, each language encodes directives through distinct grammatical means, while pragmatically the same communicative intent is realized differently across contexts, shaped by culturally specific norms of interaction and authority.

Drawing on J.Austin's speech act theory and J.Searle's illocutionary taxonomy, the study examines 120 directive utterances (60 per language) using qualitative discourse analysis, pragmatic text analysis, and communicative intent analysis. Four analytical dimensions are addressed: the morphosyntactic patterns of direct imperatives, mitigation strategies, indirect speech acts, and emotionally-marked directive-expressive hybrids. The combined application of these three mutually complementary analytical methods makes it possible to examine the intricate relationship between the linguistic form of a directive speech act, its contextual meaning, and the speaker's communicative intention from multiple angles.

Findings reveal that direct imperatives are significantly more frequent in Uzbek than in

sezilarli darajada ko'proq uchraydi (63,3% va 40%), bu o'zbek oilaviy madaniyatidagi iyerarxik hokimiyat munosabatlarining lingvistik ifodasidir. Ingliz tilida yumshatish leksik va sintaktik vositalar ("please", modal fe'llar, so'roq gaplar) orqali amalga oshirilsa, o'zbek tilida morfologik vositalar (-chi, -gin, -ing, -aylik qo'shimchalari) bu vazifani bajaradi. Bilvosita direktivlar ingliz tilida (28,3%) o'zbek tiliga (13,3%) nisbatan keng qo'llaniladi, bu esa ingliz tili salbiy xushmuomalalik taktikalariga moyil ekanligi bilan bog'liq. Ikki tilda ham emotsional-direktiv gibrid ifodalar mavjudligi oilaviy direktiv diskursning madaniyatlararo universalligini tasdiqlaydiki, grammatik va madaniy farqlar tipologik va bu ijtimoiy-madaniy omillar bilan belgilanadi.

Kalit so'zlar: buyruq (direktiv, imperativ) nutq akti, ota-ona-farzand muloqoti, pragmatik lingvistika, illokutiv kuch, yumshatish, xushmuomalalik, kontrastiv tahlil, ingliz, o'zbek.

English parent-child discourse (63.3% vs. 40%), reflecting the cultural legitimation of hierarchical parental authority in Uzbek family culture. Mitigation in English is achieved primarily through lexical and syntactic means ("please", modal verbs, interrogative reframing), whereas Uzbek relies on morphological modulation (suffixes -chi, -gin, -ing, -aylik). Indirect directives are more prevalent in English (28.3%) than in Uzbek (13.3%), consistent with Anglo-American negative politeness orientation. The presence of expressive-directive hybrid utterances in both languages demonstrates cross-cultural universality in the pragmatic organization of parental authority discourse, while grammatical and cultural differences are shaped by typological and socio-cultural factors.

Key words: directive speech act, imperatives, parent-child discourse, pragmalinguistics, illocutionary force, mitigation, politeness, contrastive analysis, English, Uzbek.

KIRISH

Oila jamiyatning bir bo'lagi bo'libgina qolmay, unda jamiyatning qadiryatlari, ma'naviyati, urf-odatlar aks etuvchi maskan hamdir. Oila ichidagi muloqot, xususan, ota-ona va farzandlar muloqoti oilaviy qadriyat va tarbiyani namoyon ettiruvchi, bir vaqtning o'zida shakllantiruvchi omildir. Shu sababdan bu omilning lisoniy xususiyatlarini ochib berish tilshunoslik va ayniqsa pragmatik lingvistika sohasida juda dolzarbdir. Lingvistik jihatdan har bir til buyruqni o'ziga xos grammatik vositalar orqali ifodalaydi, pragmatik jihatdan esa bir niyat turli vaziyatlarda turlicha amalga oshiriladi va bu jihat madaniyat me'yorlariga albatta bog'liq bo'lib, bir biridan farq qiladi. Tilshunoslikda pragmatika nutqiy aktlarni o'rgangani bois nutqiy akt tarkibiga kiruvchi buyruq akti unda markaziy o'rinni egallaydi, chunki direktiv nutq akti tinglovchining harakatlariga bevosita ta'sir ko'rsatishga e'tibor qaratib, o'z ichiga iltimos, taqiq, ogohlantirish, yo'l yo'riq ko'rsatish kabi harakatlarni oladi. Oilaviy muloqot doirasida aynan direktivlar orqali farzandlarining xatti harakatlariga ta'sir qilib, tarbiya beradilar va avloddan avlodga o'tib kelayotgan axloq me'yorlarini ularning ongida shakllanishiga hissa qo'shadilar.

Pragmatika va qiyosiy tilshunoslikda tadqiqotlarining jadal borayotganiga qaramay, direktiv nutqiy aktlarning kontrastiv tahlili, xususan ota-ona va farzand o'rtasidagi dialogik muloqotda, ayniqsa ingliz va o'zbek tillari kabi turli va madaniy jihatdan farqli tillarda nisbatan kam o'rganilganligi ishning qanchalik dolzarb ekanligini isbotlaydi. Asosan individualist, tenglikka asoslangan G'arb oilaviy madaniyatlariga xos bo'lgan ingliz tili va Markaziy Osiyoning kollektivist, iyerarxiyaga urg'u beruvchi o'zbek tili buyruq nutq akti qiyoslash uchun yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu ikki tilda direktiv illokutiv kuchning qanday ifodalanishi, yumshatilishi yoki kuchaytirilishi sof grammatik nuqtai nazardan tushuntirib bo'lmazligi sababli,

bu hodisa lingvistik shakl, kommunikativ funksiya va ijtimoiy-madaniy kontekstni yagona talqin doirasida birlashtiruvchi pragmlingvistik tahlilni talab qiladi. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida ota-ona va farzand muloqotidagi direktiv nutqiy aktlarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish orqali ushbu ilmiy bo'shliq to'ldiriladi. Tadqiqot o'z ichiga to'rt maqsadni qamrab oladi: birinchidan, har bir tilda direktivlarni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan asosiy morfosintaktik va leksik strategiyalarni tavsiflash; ikkinchidan, illokutiv kuchni ifodalovchi yumshatish va kuchaytirish strategiyalarini aniqlash; uchinchidan, pragmatik jihatdan imperativ bo'lmagan grammatik shakllar direktiv illokutiv kuchni ifodalagan bilvosita nutqiy akt hodisalarini tahlil qilish; to'rtinchidan, oilaviy muloqotda direktivlardan foydalanishning ham universal, ham madaniyatga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi kontrastiv pragmlingvistik doirasida tahlil qilish.

Adabiyotlar sharhi

Ushbu tadqiqotning nazariy asosi J.L. Ostinning Garvard universitetidagi o'qigan ma'ruzalari, keyinchalik "So'zlar bilan qanday qilib ish qilish kerak" ("How to Do Things with Words") nomli kitob sifatida nashr etilgan klassik nutqiy akt nazariyasiga tayanadi. Ostinning asosiy hissasi shundaki, nutqiy ifodalar voqelikni tasvirlabgina qolmay, balki muayyan ijtimoiy harakatlarni ham bajarishini ko'rsatib beradi [Austin, 1962]. U nutqiy akti uch turga bo'ladi: lokutsion akt ma'lum ma'no va murojaat bilan gapni aytish; illokutiv akt so'zlovchi nutq orqali amalga oshiradigan konventsional ya'ni ma'lum bir harakatga undovchi kuch (buyruq, va'da yoki ogohlantirish); va perlokutiv akt tinglovchida paydo bo'ladigan natija. Bu uchchala nutqiy aktlarning barchasi ota-ona va farzandlar o'rtasidagi muloqotda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan "*Xonangga bor*" degan iborasi jismoniy harakatni tasvirlovchi lokutiv akt bo'lib, buyruq illokutiv aktiga kiradi va bu bilan farzandning itoat etishi yoki qarshilik ko'rsatishi ko'rinishidagi perlokutiv ta'sirga erishadi.

Keyinchalik J.Syorl J.L. Ostinning nutqiy akt nazariyasini davom ettirib, sezilarli darajada takomillashtirildi va tizimlashtirdi. J.Syorl illokutiv aktlarning keng qamrovli tasnifini beshta asosiy mezon asosida taklif etdi: illokutiv maqsad, so'z va olam o'rtasidagi muvofiqlik yo'nalishi, samimiylik shartlari, propozitsional mazmun va illokutiv kuchning darajasi. Uning tasnifi illokutiv akti beshta asosiy turga ajratadi: assertivlar, direktivlar, komisivlar, ekspressivlar va deklarativlar [Searl, 1969]. Bulardan direktivlar tinglovchini biror narsa qilishga undashdan iborat nutqiy illokutiv aktarlardan biri bo'lib, bu jihat ushbu tadqiqot uchun eng muhimi hisoblanadi. J.Syorl shuningdek bevosita va bilvosita nutqiy aktlarni farqlaydi. Bunga ko'ra bevosita buyruqlar to'g'ridan to'g'ri buyruq ma'nosi va shakliga ega bo'lsa, bilvosita buyruqlar shaklan boshqa aktga, ammo mazmunan aynan buyruq aktiga tegishli bo'ladi. Masalan: ota-onaning "*Could you turn off the TV?*" degan savoli ingliz tilidagi biror ishni qilishga qobiliyat haqidagi haqiqiy so'roq sifatida emas, balki buyruq sifatida qabul qilinadi.

Rus tilshunoslaridan A.Maslova pragmlingvistikani rus an'analari nuqtai nazaridan nutqiy akt nazariyasiga keng qamrovli sharh beradi. Uning fikricha nutqiy akt nazariyasi inson kommunikatsiyasining asosiy birliklari sifatida tuzilishi jihatdan

ko'p qirrali bo'lgan muayyan nutqiy harakatlarni e'tirof etadi. Ushbu nutqiy harakatlar ma'lum kommunikativ vazifalarni bajaruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi va muayyan ta'sirlarni yuzaga keltirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bunday ta'sirlar odatda adresatning amaliy harakati yoki emotsional reaksiyasi orqali namoyon bo'ladi [Maslova, 2014, 48].

O'zbek tilshunos olimi Sh.Safarov "Pragmalingvistika" asarida ushbu asosiy tushunchchalarni o'zbek tilshunosligi an'anasi doirasida tizimlashtirib, nutqiy aktlar nazariyasi o'zbek diskursidagi kommunikativ niyatni tahlil qilish uchun eng samarali doira ekanligini ta'kidlaydi [Safarov, 2008]. Yana bir o'zbek tilshunosi M.Hakimov pragmalingvistikaning o'zbek tili sathlari bilan o'zaro munosabatlarini matnlar misolida tahlil qiladi hamda o'zbek tili matnlarining semantik tuzilishida ishtrok etgan pragmatik ma'no turlarini o'rganadi [Hakimov, 2001].

Z.Karimova o'zbek tilshunosligida so'z-gaplarning lokutiv, illokutiv va perlokutiv nutqiy akt turlarini hosil qila olishini ko'rsatib, J.L. Ostinning uch qismli modelini o'zbek tiliga tatbiq etadi. Olima ta'kidlaganidek, o'zbek tilidagi buyruq, iltimos va talab qilish kabi pragmatik ma'nolar nutqiy aktning barcha uch qatlamida o'z izini qoldiradi [Karimova, 2021].

Direktivlar illokutiv kuchni ifoda qilishda xuxushmuomalalik nazariyasi doirasidan ajralmas tarzda tahlil qilinadi, chunki P.Braun va S.Levinson ta'riflaricha buyruq akti o'z tabiatiga ko'ra yuzni xavf ostiga qo'yuvchi (face threatening act) aktlardan biri hisoblanadi. Ularning modelida hushmuomalalik so'zlovchilar o'z va suhbatdoshlarining yuzini bir birining istaklariga qarama qarshi holda harakat qilmaslik uchun ishlatadigan vositalari hisoblanadi. Ijobiy yuz yoqtirilish va ma'qullanish istagi bo'lsa, salbiy yuz esa o'z harakatlarida erkin va cheklovsiz bo'lish hohishidir [Brown & Levinson, 1987; 61-62]. Direktivlar so'zlovchining harakatlar erkinligiga ta'sir ko'rsatganligi sababli tinglovchining salbiy yuzini xavf ostiga qo'yadi. Madaniyatlararo pragmatik tadqiqotlarda ko'plab Osiyo, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mamlakatlari jamoalarida, shu jumladan, o'zbek tilida hamjihatlikka asoslangan yoki ijobiy xushmuomalalik strategiyalari direktiv muloqotda ham me'yoriy tarzda afzal ko'rilishi va do'stona muhitda bevosita imperativlar salbiy yuz tahdidi sifatida qabul qilinmasligini ko'rsatdi [Sifianou, 1992; Trosborg, 1995; Wierzbicka, 1991].

K.Kosh britaniyalik va fors oilaviy diskursida murojaatning xushmuomalalik strategiyalarini qiyosiy o'rganib, britaniyalik madaniyatda tenglikka asoslangan strategiyalar ustunligini, fors madaniyatida esa yuqori hokimiyat masofasi va iyerarxik murojaatni ko'p ekanligini aniqladi. Muhim topilma shundaki, fors madaniyatidagi farzandlar ota-onaga faqat "*onajon*" yoki "*dadajon*" shaklida murojaat qilishi o'zbek oilaviy muloqoti me'yorlariga juda yaqin, bu esa Sharq madaniyatlari o'rtasidagi tipologik umumiylikni ko'rsatadi [Khosh, 2021].

Turli tillarda direktiv nutqiy aktlarni o'rganuvchi qiyosiy va madaniyatlararo tadqiqotlar ko'plab uchraydi. S.Blum-Kulka, J.Xaus va G.Kasparning 1989-yilda sakkiz tilda nutq aktini ifodalanishini qiyoslaydigan CCSARP (Cros cultural speech act realization project) loyihasi ham asosiy harakat strategiyasini tanlashda, ham ichki va tashqi o'zgartirgich qurilmalaridan foydalanishda tizimli madaniyatlararo

farqlanishni ko'rsatib berdi [Blum-Kulka, 1998]. P.Klansining tadqiqoti yapon ona va bola muloqotida bilvosita va hissiy jihatdan bo'yoqdor direktivlardan ko'proq foydalanishni aniqladi [Clancy, 1986]. E.Oks va B.Shiffelin Kaluli va Samoa jamoalarida kattalar tomonidan bolalarga qaratilgan bevosita imperativlar doimiy qo'llanilmasligini ko'rsatdi, ingliz tilida so'zlashadigan ota-onalar esa yumshatilgan va bilvosita shakllarni afzal ko'rishini aniqladi [Ochs & Schiffelin, 1984].

P.Nurhidaya, P.Patuan Raja va B.Setiyadi oilaviy suhbatda direktiv nutqiy aktlarni sifatiy tahlil qilib, 5 kun davomida 25 ta direktiv ifodani o'rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdi: direktivlarning 88 foizi imperativ shaklda, 8 foizi so'roq shaklida, 4 foizi xabar gap shaklida kelgan. Ervin-Trip (1976) tipologiyasi asosida olingan bu topilmalar yoshga asoslangan hokimiyat va kuch asymmetriyasi imperativ ustunligini belgilay olganligi bilan izohlanadi [Nurhidayah et. al., 2024]. Ushbu raqamlar mazkur tadqiqotda aniqlangan o'zbek tilidagi direktiv taqsimot (63,3% imperativ) bilan mos kelishi muhim tipologik umumiylikni ko'rsatadi.

I.Morozova va A.Vakulenko britaniyalik ota-ona diskursini tarixiy perspektivada o'rganib, 18-asr ("Aristokratlar", "Andisha va g'urur") va 21-asr (Broadchurch) matnlaridan 400 ta fragment tahlil qildi. Topilmalar quyidagilarni ko'rsatdi: hamkorlik strategiyasi har ikkala davrda ham ustunlik qilgan, biroq asosiy taktika maslahat yoki ko'rsatmadan muhokamaga o'zgargan; konflikt strategiyasi esa salbiy yetakchi strategiya bo'lib qolgan. Ingliz ota-ona diskursining tarixiy evolyutsiyasi avtoritar ota-onadan rol modeli va murabbiyga o'zgarganini ko'rsatadi [Morozova & Vakulenko, 2023].

L.Baymuradova kommunikativ strategiya va nutqiy strategiyaning ifoda usullarini qiyosiy-tilshunoslik yo'nalishida o'rganib, muloqot maqsadiga erishishda qo'llaniladigan til va nutq vositalarining pragmatik, stilistik va semantik tanlovini tahlil qiladi. Tadqiqotchi kommunikativ strategiyani "so'zlovchining til vositalari va nutqiy harakatlari asosida quriladigan qarorlar ifodasining ketma-ketligi" sifatida ta'riflaydi va kommunikativ taktikani strategiyaning amalga oshirilish vositasi deb belgilaydi. Tadqiqotda til semiotik sistema sifatida nafaqat axborot yetkazish, balki muloqotdoshga emotsional va psixologik ta'sir ko'rsatish uchun ham xizmat qilishi ta'kidlanadi. Olima nutqiy strategiyaning oilaviy muloqot kontekstidagi ahamiyatini ko'rsatib, direktiv ifodalarning kommunikativ maqsadga erishishda qanday strategik vazifalarni bajarishini asoslab beradi [Baymuradova, 2024]. Ushbu nazariy yondashuv mazkur tadqiqotning direktiv nutqiy aktlarni kommunikativ strategiya tarkibida ko'rish imkonini beradi.

D.Sabirova Britaniya Milliy Korpusidan 350 ta fragment asosida ingliz oilaviy diskursida murojaatning funksional tahlilini o'tkazdi. Tadqiqotda besh murojaat turlari aniqlandi, unga ko'ra: antroponimlar (51,4%), qarindoshlik terminlari (9%), laqablar, hissiy-baholovchi murojaatlar (30,6%) va neytral murojaatlar kabi turlar o'rganildi. Muhim jihat shuki, antroponimlarning to'liq shakli neytral munosabatni, qisqa shakli esa ijobiy va yaqin olish munosabatni bildiradi. Ism oldidan salbiy ma'nodagi sifat qo'llanishi esa norozilikni ifodalaydi. Oilaviy mavqeni aks ettiruvchi qarindoshlik terminlari eng barqaror guruhni tashkil etadi [Sabirova, 2023].

D.Sulaymonova ingliz va o'zbek oilaviy muloqotidagi murojaatni lingvomadaniy jihatdan qiyoslab, har bir madaniyatdan taxminan 30 ta oila so'rovnomasini o'tkazdi. O'zbek murojaatida *"aya, dada"*, *"onajon, dadajon"* ifodalari va *"-jon"* qo'shimchasi va hududiy variantlar keng tarqalgan; ingliz murojaatida esa *"mum, dad"*, *"mummy, daddy"* shakllari barcha hududlarda bir xil qo'llaniladi. Ikki madaniyatda ham ijobiy strategiyalar va ota-onaga hurmat markaziy bo'lib, farq shundaki, o'zbek tilida boy dialektal xilma-xillik mavjud, ingliz tilida esa nisbatan bir xillik kuzatiladi [Sulaymonova, 2022].

Z.Karimova o'zbek va ingliz tillarida so'z-gaplarning sotsiopragmatik xususiyatlarini o'rganib, *aylanay, o'rgilay, jonim tasadduq, qulluq* kabi o'zbekcha erkalash birliklarining ingliz tilida leksik muqobili yo'qligini ya'ni ular "lakuna" ekanligini aniqladi. Bu topilma o'zbek direktiv diskursining milliy-madaniy o'ziga xosligini ko'rsatadi [Karimova, 2021].

Ingliz tili direktiv illokutiv kuch turli grammatik qurilmalar orqali ifodalanadi. Qat'iy shakl, aniq shaxssiz fe'lining asosiy shaklidan iborat direktiv sintaktik jihatdan ixcham va semantik jihatdan aniq. Biroq ingliz tilining direktiv tarkibi modal fe'lli so'roq gaplarga (*"Could you close the window?"*), ikki ma'noli darak gaplarga (*"You need to finish your homework"*), tasdiq so'roq gaplarga (*Sit down, will you?"*) va darak inkor gaplarga (*"Don't touch that"*) kengayadi [Quirk et al., 1985; Huddleston & Pulum, 2002].

F.Boskachi ingliz, brazil-portugal tilli (ikki tilli) oilaviy muloqotda ona va 4 yoshli o'g'il o'rtasidagi direktivlarni tadqiq etdi. Ona direktivlarida imperativ miqdori 38% (o'yin jarayonida)dan 35% gacha (vannaxonada) yetadi; bola esa pragmatik mahorat bilan modal fe'l (*"Can we do it?"*) va birinchi shaxs ko'plik olmoshi orqali yumshatish strategiyasini qo'llaydi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, morfologiya va direktivlar o'rtasidagi munosabat pragmatik kompetensiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi [Boscacci, 2020]. Ushbu natijalar mazkur tadqiqotning ingliz tilida imperativlarning nisbatan kamroq uchrashi (40%) va yumshatilgan shakllar ko'proq qo'llanilishi xulosasini qo'llab-quvvatlaydi.

Agglyutinatib til bo'lgan o'zbek tilida direktiv kuch asosan fe'l buyruq maylining morfologik belgilari orqali ifodalanadi. Ikkinchi shaxs birlik fe'l asosining o'zi bo'lib, ko'plik hurmat shakli esa *-ing* qo'shimchasini qo'shib, yuqori darajadagi ehtirom yoki rasmiylikni ko'rsatadi (*"Keling"*, *"O'tiring"*). *-chi* yumshatuvchi yuklamasi direktiv illokutiv kuchini pasaytiradi (*"O'tir-chi"*). *-ay*, *-aylik*, *-sin*, *-gin*, *-kin* qo'shimchalari ham ko'proq yumshoq tarzda ifodalanadigan va buyruq istak maylidagi buyruq aktini bildiradi (*"Ketaylik"*). Yuqoridagi qo'shimchalardan ba'zilar buyruqni yumshatishsa, ba'zi qo'shimchalar, masalan, inkor *-ma* qo'shimchasi buyruqning ma'nosini kuchaytiradi (*"Borma!"*) [Johanson & Ksato, 1998; Safarov, 2008].

TADQIQOT METODLARI

Ushbu tadqiqot sifatli matn tahlili (kvalitativ) metodologiyasiga asoslanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz va o'zbek tillarida ota-ona va farzand o'rtasidagi muloqotdagi direktiv nutqiy aktlarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini

matn va pragmatik niyat tahlili orqali ochib berishdan iborat. Sifatliy yondashuv tadqiqotchiga lingvistik ma'lumotlarni nafaqat shakliy, balki funksional va madaniy-kontekstual jihatdan talqin qilish imkonini beradi [Maslova, 2014]. Ushbu tadqiqotda qo'llaniladigan uch asosiy metod: diskurs tahlili, pragmatik matn tahlili va kommunikativ niyat tahlili bir-birini to'ldiradigan va o'zaro bog'liq usullar sifatida tatbiq etiladi. Ularning birgalikdagi qo'llanilishi direktiv nutqiy aktning lingvistik shakli, kontekstual ma'nosi va so'zlovchi niyati o'rtasidagi munosabatni har tomonlama ochib berish imkonini yaratadi.

Diskurs tahlili (Discourse Analysis) nutqiy muloqotni alohida jumlarlar darajasida emas, balki keng kontekst va ijtimoiy munosabatlar tizimida o'rganuvchi metod. Bu yondashuv J.Ostinning nutqiy akt nazariyasi, J.Syorlning illokutiv akt tasnifi va S.Levinsonning pragmatika nazariyasi bilan chambarchas bog'liq. Diskurs tahlilida har bir ifoda alohida birlik sifatida emas, balki muloqot kontekstidagi ketma-ketlik va munosabatlar tizimining bir qismi sifatida o'rganiladi.

Ushbu tadqiqotda diskurs tahlili ota-ona va farzand o'rtasidagi direktiv muloqot parchalarini uch darajada tahlil qiladi: birinchi daraja mikrodiskurs darajasi, ya'ni alohida direktiv ifodaning ichki tuzilishi (grammatik shakl, leksik tarkib, sintaktik qurilma); ikkinchi daraja mezodiskurs darajasi, ya'ni direktiv ifodaning oldindagi va keyingi replikalarga munosabati, savol-javob zanjirlari, takror direktivlar; uchinchi daraja makrodiskurs darajasi, ya'ni direktiv ifodaning oilaviy muloqot tizimidagi ijtimoiy-madaniy vazifasi va ota-ona hokimiyatining tilshunoslik ko'rinishi. Sh. Safarov ta'kidlaganidek, o'zbek tilidagi direktiv muloqotni to'liq tushunish uchun aynan ushbu uch darajali tahlil zarurdir, chunki o'zbek oilaviy muloqotida illokutiv kuch nafaqat grammatik shaklda, balki keng diskursiv kontekstda ham ifodalanadi [Safarov, 2008]. Grebenshchikova oilaviy muloqotda diskursiv ta'sir taktikasini modellastirib, yaqin emotsional masofa va kamaytirilgan xushmuomalalik chegarasi kabi oilaviy diskursning o'ziga xos xususiyatlarini aniqladi. Olima muloqotda yetakchi bo'lgan niyatning ikki ta'sir yo'nalishni ko'rsatdi: 1) hamkorni harakatga undash; 2) hamkorning situatsion modelini o'zgartirish. Kommunikativ taktika individual iboralardan (qisman niyatlar bilan) tuzilgan moslashuvchan muloqot doirasi sifatida ta'riflandi [Grebenshchikova, 2012]

Pragmatik matn tahlili (Pragmatic Text Analysis) matnning yuzaki lingvistik tuzilishi ortidagi yashirin ma'no va kommunikativ maqsadni ochib beruvchi metod. Bu metod P.Graysning (1975) kooperativ tamoyili va suhbat implikaturasi nazariyasiga, shuningdek Shperber va Uilsonning relevantlik nazariyasiga asoslanadi. Pragmatik matn tahlilida asosiy e'tibor quyidagilarga qaratiladi: a) matnning denotativ (so'zma-so'z) ma'nosi va konnotativ (yashirin, qo'shimcha) ma'nosi o'rtasidagi munosabat; b) presuppozitsiya ifodada aytilmagan, lekin tinglovchi tomonidan ma'lum deb qabul qilinadigan ma'no qatlami; c) implikatura ifodaning grammatik shaklidan kelib chiqmaydigan, lekin kontekst orqali anglashiladigan ma'no; d) illokutiv kuchning bevosita va bilvosita ifoda shakllari.

Ota-ona va farzand direktiv muloqotini pragmatik matn tahlili nuqtai nazaridan o'rganishda M.Hakimov ishlab chiqqan o'zbek matni pragmatik tahlili metodikasi

alohida ahamiyat kasb etadi. Olim ko'rsatganidek, o'zbek tilidagi direktiv ifodalarning yuzaki grammatik shakli ko'pincha uning haqiqiy pragmatik maqsadini to'liq aks ettirmaydi: masalan, oddiy xabar gap shaklida kelgan "*Ovqat soviyapti*" ifodasi aslida farzandni ovqatlanishga chaqiruvchi direktiv vazifasini bajaradi. Ushbu holat grammatik shakl va pragmatik ma'no o'rtasidagi tafovut aynan pragmatik matn tahlili metodi yordamida ochib beriladi. Ingliz tilida ham xuddi shunday hodisa kuzatiladi: "*It's getting late*" ifodasi grammatik jihatdan xabar gap bo'lsa-da, pragmatik jihatdan "*Uxla!*" degan direktivni ifodalaydi [Levinson, 1983]. Y. Maslova ham pragmalingsvistik tahlilning asosiy vazifasi aynan shu turdagi yashirin kommunikativ ma'nolarni aniqlash ekanligini ta'kidlaydi [Maslova, 2014].

Z.Karimova o'zbek tilida so'z-gaplarning sotsiopragmatik to'sig'i (ya'ni kommunikativ maqsadning bilvosita ifodalanishini qiyinlashtiradigan majmuaviy to'siqlar) hodisasini tahlil qilib, ushbu to'siqlar ko'pincha suhbatdoshning yoshi, ijtimoiy mavqei va jinsi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatdi [Karimova, 2021]. Bu tadqiqot o'zbek tilidagi direktiv strategiyalar tahlilida muhim metodologik ko'rsatma bo'lib xizmat qiladi.

Kommunikativ niyat tahlili (Communicative Intent Analysis) so'zlovchining nutqiy harakatining ortidagi maqsad, istak va niyatni aniqlashga yo'naltirilgan metod. Bu metod J.Ostin tomonidan asoslangan illokutiv akt tushunchasiga va J.Syorl tomonidan ishlab chiqilgan samimiylilik shartlari (sincerity conditions) nazariyasiga bevosita tayanadi. J.Syorl ta'kidlaganidek, har bir nutqiy aktning asosida so'zlovchining tinglovchida ma'lum ta'sir uyg'otish, uni biror harakat qilishga undash yoki ma'lum axborot uzatish kabi muayyan kommunikativ niyati yotadi. Direktiv nutqiy aktlarda ushbu niyat ayniqsa murakkab tuzilishga ega, chunki ota-onaning bitta buyrug'i bir vaqtda bir nechta niyatni o'z ichiga olishi mumkin: buyruq niyati, tarbiyalash niyati, himoya qilish niyati yoki hissiy ta'sir ko'rsatish niyati.

Ushbu tadqiqotda kommunikativ niyat tahlili quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich birlamchi niyatni aniqlash: so'zlovchi (ota-ona) tinglovchidan (farzanddan) nima qilishini yoki qilmasligini kutmoqda? Bu savol direktiv ifodaning illokutiv yadrosini aniqlashga yordam beradi. Ikkinchi bosqich ikkilamchi niyatni aniqlash: direktiv ifoda faqat xulq-atvorni tartibga solishdan tashqari qanday qo'shimcha maqsadni ko'zlaydi? Masalan, "*Necha marta aytdim senga?!*" iborasi farzandni biror ish qilishga undash bilan birga ota-onaning hafsalasizligini ifodalash, farzandda vijdon va mas'uliyat hissini uyg'otish niyatini ham o'zida mujassamlashtiradi. Uchinchi bosqich madaniy niyatni aniqlash: direktiv ifodaning orqasida qanday madaniy qadriyatlar va ijtimoiy normalar yotadi? Bu bosqichda ikki tilning ingliz va o'zbek tillarining oilaviy muloqot madaniyatidagi farqlar ochib beriladi. T.Grebenshchikova tomonidan taklif etilgan oilaviy diskursda niyat tahlil metodi ushbu tadqiqotda ham qo'llanildi: har bir direktiv ifodaning kommunikativ niyati kontekst va madaniy me'yorlar asosida talqin qilindi. Sh.Safarov ko'rsatganidek, o'zbek tilida direktiv ifodalarda ko'pincha farzandni ijtimoiy normalar, oilaviy an'analar va axloqiy qadriyatlarga bo'ysunishga undash niyati ham mavjud bo'lib, bu niyat ingliz tilidagi direktiv muloqotda kamroq namoyon bo'ladi.

Tadqiqot uchun ma'lumotlar uchta asosiy manbadan olindi. Birinchi manba tabiiy oilaviy muloqot matnlari: ingliz va o'zbek tillarida ota-ona va farzand o'rtasidagi haqiqiy suhbatlardan olingan direktiv ifodalar. O'zbek tilidagi matnlar kuzatishlari va real oilaviy muloqotni aks ettiruvchi badiiy adabiyot namunalari asosida to'plandi. Ingliz tilidagi matnlar oilaviy diskurs tadqiqotlariga bag'ishlangan ilmiy nashrlardan, jumladan F.Boskachi, P.Nurhidaya va I.Morozova kabi so'nggi tadqiqotlardan olindi. Ikkinchi manba bo'lib adabiy matnlar: O'zbek va ingliz badiiy adabiyotidan olingan ota-ona va farzand muloqotini tasvirlovchi parchalar. Adabiy matnlar real nutq namunasi sifatida keng e'tirof etilgan bo'lib, ulardagi dialoglar tabiiy oilaviy muloqotning lingvistik xususiyatlarini to'liq aks ettiradi [Hakimov, 2001]. Uchinchi manba tadqiqotchi tomonidan tuzilgan va ona tili so'zlovchilari tomonidan tasdiqlangan namuna ifodalar. Jami 120 ta direktiv ifoda (ingliz tilida 60 ta, o'zbek tilida 60 ta) tahlil qilindi.

Tahlil jarayoni uch ketma-ket bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda har bir direktiv ifoda diskurs tahlili metodi orqali o'rganildi: uning mikro-, mezo- va makrodiskurs darajadagi xususiyatlari aniqlandi. Ikkinchi bosqichda pragmatik matn tahlili qo'llanilib, ifodaning yuzaki grammatik ma'nosi va ichki pragmatik ma'nosi o'rtasidagi munosabat, presuppozitsiya va implikatura qatlamlari tahlil qilindi. Uchinchi bosqichda kommunikativ niyat tahlili orqali har bir direktiv ifoda ortidagi birlamchi, ikkilamchi va madaniy niyatlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar tizimli ravishda taqqoslandi. Ushbu uch bosqichli tahlil jarayoni J.Ostinning lokutsion-illokutiv-perlokutiv aktlari asosida qurilgan bo'lib, I.Maslova tavsiya etgan pragmalingsvistik tahlil tamoyillari bilan uyg'unlashtirilgan.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Ushbu bo'limda ingliz va o'zbek tillarida ota-ona va farzand o'rtasidagi muloqotdan to'plangan 120 ta direktiv ifoda (har bir tilda 60 tadan) tahlil qilinadi. Har bir kichik bo'limda ikki til parallel va teng darajada ko'rib chiqiladi: avval ingliz tili, so'ng o'zbek tilidagi misollar bir xil tahliliy darajada muhokama qilinadi.

Bevosita imperativ direktiv nutqiy aktning qat'iy va morfosintaktik jihatdan eng aniq shakli hisoblanadi. Ingliz va o'zbek tillarining ikkalasida ham bu shakl direktiv illokutiv kuchini bevosita ifodalaydi, lekin ikki til bu vazifani turli grammatik vositalar orqali amalga oshiradi.

Ingliz tilida bevosita direktivlar sintaktik jihatdan quriladi: fe'l gap boshida, shaxssiz holda keladi. P.Nurhidaya oilaviy muloqotda 88% imperativ uchrashini aniqlagan bo'lsa, F.Boskachi ikki tilli ona-bola muloqotida imperativlar 35–38% ni tashkil etganligini ko'rsatdi. Bu farq madaniy kontekst va ikki tillilik bilan bog'liq: bir tilli oilaviy muloqotda imperativlar ko'proq, ikki tilli muloqotda esa yumshatilgan shakllar ko'proq namoyon bo'ladi. Quyida shunga doir misollarni ko'rib chiqsak.

1-jadval. Ingliz tilida bevosita direktiv gaplar yasalishi

№	Misol ingliz tilida	Tafsifi	O'zbek ekvivalenti
1.	"Sit down right now".	Shaxssiz fe'l gap boshida	"Hoziroq o'tir."
2.	"Don't touch that".	Yordamchi inkor fe'l gap boshida	"Bunga tegma."

3.	<i>"Go to your room immediately"</i>	<i>Shaxssiz fe'l gap boshida</i>	<i>"Darhol xonangga bor."</i>
----	--------------------------------------	----------------------------------	-------------------------------

Misollardan kelib chiqadiki, ingliz tilida direktivlar ko'pincha gap boshida keluvchi yordamchi yoki aniq (inkor) fe'l orqali yasaladi.

O'zbek tilida esa bevosita direktivlar morfologik jihatdan quriladi: direktiv ma'no fe'lining buyruq mayli qo'shimchalari orqali ifodalanadi. Ikkinchi shaxs birlikda qo'shimcha nolga teng bo'lib, fe'l asosining o'zi direktiv kuchni bildiradi. Z. Karimova o'zbek tilidagi buyruq, iltimos va talab qilish kabi pragmatik ma'nolarning so'z-gaplar orqali ham ifodalanishi mumkinligini ko'rsatdi. D. Sulaymonova va D. Sabirova tadqiqotlari shuni tasdiqlaydiki, o'zbek oilaviy muloqotida murojaatning o'ziga xos shakllari (*onajon/dadajon, -jon* qo'shimchasi) direktiv kuchning madaniy kontekstini belgilaydi. Quyidagi ko'ramizki o'zbek tilida buyruqlar fe'lga shaxs son qo'shimchasi, inkor yuklamasi yoki fe'ning asosiy shakli bilan yasaladi.

2-jadval. *O'zbek tilida bevosita direktivlar yasalishi*

№	Bevosita direktiv o'zbek tilida	Tafsifi
1.	<i>"O'ting."</i>	fe'l + -ing = hurmat/ko'plik
2.	<i>"Ketma!"</i>	fe'l + ma = inkor shaklidagi buyruq
3.	<i>"Xonangga bor."</i>	Asosiy fe'l, ijobiy buyruq

Ikki tilni qiyoslaganda muhim farq ko'zga tashlanadi: ingliz tilida bevosita direktivlar ma'lumotlarning 40 foizini, o'zbek tilida esa 63,3 foizini tashkil etadi. Bu farq ikki madaniyatning ota-ona hokimiyatiga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. I.Morozova va A.Vakulenko tarixiy tahlilida ham ko'rsatilganidek, ingliz ota-ona diskursida hamkorlik strategiyasi ustunlik qilgan va buyruq yetakchi salbiy strategiya sifatida qolgan; bu esa o'zbek tilidagi bevosita imperativning madaniy me'yor ekanligi sezilib turadi.

Yumshatish (mitigation) direktiv illokutiv kuchini kamaytirish va tinglovchining yuzini saqlash maqsadida qo'llaniladigan lingvistik strategiyalar majmuasi. Ingliz va o'zbek tillarida bu strategiyalar mavjud bo'lsa-da, ularning grammatik asosi va qo'llanish chastotasi tubdan farq qiladi.

Ingliz tilida yumshatish asosan ikkita mexanizm orqali amalga oshiriladi: birinchisi leksik qo'shish (masalan, *"please"* yuklamasi, modal fe'l lar); ikkinchisi sintaktik qayta yasash (buyruqni so'roq yoki xabar gapiga aylantirish). Quyida bunga yaqqol misollarni ko'rib o'tamiz:

3-jadval. *Ingliz tilida buyruqlarda yumshatish strategiyalarining qo'llanilishi*

№	Misol ingliz tilida	Yumshatishning yasalishi	O'zbek tili ekvivalenti
1.	<i>"Please sit down."</i>	Please + fe'l (leksema qo'shish bilan)	<i>"Iltimos o'tirib ol"</i>
2.	<i>"Could you please turn off the TV?"</i>	Could + please + fe'l (modal fe'l bilan)	<i>"Televizorni o'chira olas-anmi?"</i>
3.	<i>"Why don't you go to bed now?"</i>	Why not +ot + fe'l (buyruqni so'roqqa aylantirish bilan)	<i>"Joyinga yotmaysanmi?" yoki "Uxlamaysanmi?"</i>

O'zbek tilida yumshatish asosan morfologik mexanizm orqali amalga oshiriladi.

Masalan *-mi*, *-chi*, *-a*, *-ya* kabi yukalamalar, fe'ning buyruq mayli qo'shimchalari, fe'ning birgalik nisbat qo'shimchalari buyruqni yumshatib iltimos ma'nosini beradi. Z.Karimova o'zbek tilida so'z-gaplarning nozik illokutiv farqlanishlarini ko'rsatib, yumshatish vositalarining morfologik tabiatini tadqiq qiladi. Sulaymonova topilmalari shuni ham ko'rsatadiki, "*-jon*" qo'shimchali murojaatlar (*onajon*, *dadajon*) direktiv so'roq oldidan qo'llanilganda, illokutiv kuchni sezilarli darajada yumshatadi. Quyida asalan (4-jadvalga qarang):

4-jadval. *O'zbek tilida buyruqlarda yumshatish strategiyalarining qo'llanilishi*

№	Misol o'zbek tili	Yumshatish yasalishi
1.	"O'ting.", "Bering"	-ing hurmat ma'nosi, buyruq mayli, shaxs-son qo'shimchasi orqali
2.	"O'ting-chi." "Kelasan-a", "Oyijon boramizmi?"	-chi, -a, yuklamasi orqali.
3.	"Kitobni o'qigin." "Men ham boray" "Ukang ham o'ynasin"	-gin yumshatish ma'nosi, shaxs-son, buyruq mayli qo'shimchasi orqali
4.	"Dadajon, ketaylik."	Ot + jon=yumshatilgan murojaat, -aylik birgalikka taklif qilish

Ikki tilni qiyoslaganda asosiy farq shunda: ingliz tilida yumshatish so'z boyligi va sintaksis orqali, o'zbek tilida esa morfologiya orqali amalga oshiriladi. Bu farq ikki tilning tipologik xususiyatlarini ingliz tilining analitik, o'zbek tilining agglyutinatib tabiatini to'g'ridan-to'g'ri aks ettiradi.

Bilvosita buyruq akti yuzaki jihatdan darak yoki so'roq shakliga ega bo'lgan biroq asl maqsadi tinglovchini biror ishni bajarishga undash bo'lgan gaplar tushuniladi. Bilvosita nutqiy aktlarda so'zning grammatik shakli va uning pragmatik ma'nosi bir-biridan farq qiladi: xabar yoki so'roq gap aslida direktiv vazifasini ham bajarishi mumkin. J.Syorl ta'kidlaganidek, bunday holatlarda tinglovchi grammatik shaklni emas, kontekstual ma'noni ifodalaydi.

Ingliz tilida bilvosita direktivlar uch asosiy shaklda namoyon bo'ladi: a) deklarativ; b) salbiy so'roq; d) modal deklarativ. Bu shakllarning chastotasi ingliz tili ma'lumotlarining taxminan 40 foizini tashkil etadi. I.Morozova va A.Vakulenko 18-asr ingliz ota-ona diskursida ham bilvosita shakllar modal fe'llar (must, will+have to), ritorik so'roqlar keng qo'llanilganini ko'rsatdi.

5-jadval. *Ingliz tilida bilvosita direktivlarning yasalishi va undagi pragmatik niyat tahlili*

№	Bilvosita direktivlar ingliz tilida	Yasalish shakli	Pragmatik niyat
1.	"It's getting late.", "Your room looks really messy."	Deklarativ (xabar gaplar)	"Uxla.", "Xonangni yig'ishtir."
2.	"It's time for bed, isn't it" "Why don't you do your homework?"	Salbiy so'roq	"Uxlashing kerak.", "Darsingni qil"
3.	"The room should be cleaned"	Modal deklarativ, majhul nisbatli shaxssiz gap	"Xonangni yig'ishtir"

Yuqoridagi jadvalga ko'ra pragmatik niyatni ifoda etishda direktivlar deklarativ gaplar, (salbiy) so'roq gaplar (tag questions) va modal deklarativ shaklli shaxssiz gaplar orqali ifodalanishini ko'ramiz.

O'zbek tilida ham bilvosita buyruqlar ko'p uchraydi. Bu tilda ham huddi ingliz tilidagi singari xabar, so'roq, istak mayli, modallik va yuklamalar, majhul nisbat orqali amalga oshadi va ma'lum bir pragmatik niyatni taqazo etadi (6-jadval).

6-jadval. *Ingliz tilida bilvosita direktivlarning yasaliishi va undagi pragmatik niyat tahlili*

№	Bilvosita direktiv o'zbek tilida	Yasalish shakli	Pragmatik niyat
1.	"Xonang sovib ketipti"	Xabar gap orqali	"Isitgichni yoq"
2.	"Nega vazifalaringni bajarmaysan?"	So'roq gap orqali	"Vazifalaringni doimo bajarib yur!"
3.	"Qani endi, sen ham menga yordam bersang" "Ertalab vaqtli uyg'onsang edi"	Istak mayli orqali	"Menga yordaming kerak", "Ertalab erta uyg'on "
4.	"Ota-onani gapiga doim quloq solish kerak!"	Modal vositalar orqali	"Ota-onangni gapiga kir!"
5.	"Idishlar tez yuvilsin-chi!"	Majhul nisbat fe'l va yuklama orqali	"Idishlarni darhol yuvib qo'y"

Hissiy jihatdan bo'yoqdor direktivlar bu direktiv va ekspressiv vazifalarni bir vaqtning o'zida bajaruvchi aralash bo'lgan buyruq shaklidir. Bunday ifodalarda ota-ona nafaqat farzandni biror ish qilishga undaydi, balki o'z his-tuyg'ularini ham ifodalaydi. J.Ostin ta'riflagan perlokutiv ta'sir bu yerda ayniqsa yaqqol ko'rinadi.

Ingliz tilida hissiy jihatdan bo'yoqdor direktivlar ko'pincha ritorik so'roq gaplar, "don't dare" konstruksiyalari va takror-buyruq shakllari orqali ifodalanadi. I.Morozova va A.Vakulenko tarixiy tahlilida ko'rsatilganidek, konflikt strategiyasi yetakchi salbiy strategiya bo'lib, ota direktivlarida 47%, ona direktivlarida 64% ni tashkil etadi bu raqamlar mazkur tadqiqotdagi hissiy-direktiv gibridlar chastotasi bilan mos keladi.

7-jadval. *Ingliz tilida hissiy jihatdan bo'yoqdor direktivlar ifodalanishi*

№	Hissiy jihatdan bo'yoqdor direktivlar	Yasalishi	Ma'nosi
1.	"Don't you dare talk back to me!"	"Don't dare" konstruksiyasi bilan	"Menga gap qaytarma"
2.	"How many times have I told you to clean your room?!"	Ritorik so'roq orqali	"Honangni tozala" (Norozilik ma'nosida)
3.	"Shut up, shut up!"	Takror buyruqlar bilan	"Gapirma" ("Me'yordan ortiq yoki noma'qul gap gapirding" ma'nosida)

O'zbek tilida hissiy jihatdan bo'yoqdor direktivlar ko'pincha yuklamalar, yordamchi fe'llar, ohang, inversiya, metaforik buyruqlar orqali ifodalanadi. Z.Karimova o'zbek tilidagi hissiy so'z-gaplarning, xususan, qarg'ish va duo shakllarining ma'no nozikliklarini tahlil qilib, ularning intonatsiya, mimika va tana harakatlari bilan uyg'unlashganida perlokutiv ta'sir kuchi sezilarli darajada oshishini ko'rsatdi.

8-jadval. O'zbek tilida hissiy jihatdan bo'yoqdor direktivlar ifodalanishi

№	O'zbek tilida hissiy jihatdan bo'yoqdor direktivlar	Yasalishi	Ma'nosi
1.	"Qani, kel-chi", "Aytgin", "Sen boravergin-da", "Uyga vaqtida kelgin-a".	Yuklamalar orqali	-chi, -gin yumshatish, iltimos ma'nosini beradi. -da yuklamasi maslahat yoki istak ma'nosida. -a yuklamasi ham iltimos ham talab ma'nosida
2.	"Keta qol", "Aytib ber"	Yordamchi fe'llar orqali,	Qol yordamchi fe'li ham rozilik, ham tezlashish ma'nosida Ber yordamchi fe'li iltimos ma'nosida
3.	"Gap qaytarma, dedim senga!"	Inversiya orqali	Qat'iy buyurish, tanbeh berish ma'nosida

8-jadvalga ko'ra, o'zbek tilida ham hissiy jihatdan bo'yoqdor so'zlarga duch kelamiz. Ular asosan yuklamalar, metaforalar, yordamchi fe'llar hamda inversiya orqali yasalganini ko'rishimiz mumkin.

Ikki tilni qiyoslaganda umumiylik aniq ko'rinadi: ikkalasida ham hissiy jihatdan bo'yoqdor direktivlar mavjud va ular perlokutiv ta'sir kuchi yuqori bo'lgan ifodalar hisoblanadi. Farq esa shaklda: ingliz tilida bunday direktivlar ko'proq sintaktik orqali ifodalansa, o'zbek tilida ular ko'proq metaforik imperativlar va kuchaytirgich yuklamalar orqali namoyon bo'ladi. Intonatsiya ikki tilda ham hal qiluvchi rol o'ynaydi.

9-jadval. Ingliz va o'zbek tillarida direktiv shakllarning miqdoriy taqsimoti (n=60)

Direktiv turi	Ing (n)	Ing (%)	O'z (n)	O'z (%)
Bevosita imperativ	24	40,0	38	63,3
Yumshatilgan	15	25,0	13	21,7
Bilvosita direktiv (xabar)	12	20,0	6	10,0
Bilvosita direktiv (so'roq shaklidagi)	5	8,3	2	3,3
Hissiy-direktiv gibrid	4	6,7	1	1,7
Jami	60	100	60	100

10-jadval. Ingliz va o'zbek tillarida direktiv strategiyalarning sifatiiy qiyosiy tahlili

Tahlil o'lchami	Ingliz tili	O'zbek tili
Asosiy grammatik mex-anizm	Sintaktik (fe'l tartibi, so'roq shakli)	Morfologik (imperativ qo'shimchalari)
Yumshatish vositasi	"please", modal fe'llar, so'roq gaplar	-ing, -chi, -gin, -aylik qo'shimchalari
Bevositalilik darajasi	o'rtacha (40% bevosita)	Yuqori (63% bevosita)
Bilvosita shakllar	Keng qo'llaniladi (28,3%)	Kamroq qo'llaniladi (13,3%)
Xushmuomalalik yo'nalishi	Salbiy xushmuomalalik (yuzni saqlash)	Ijobiy xushmuomalalik (hamjihatlik)
Madaniy kontekst	Tenglikka asoslangan, avtonomiyani hurmat qilish	Iyerarxik, ota-ona hokimiyati me'yoriy
Hissiy-direktiv gibrid shakli	Ritorik so'roq, "don't dare",	Metaforik imperativ, kuchaytirgich yuklamalar, inversiya yordamchi fe'llar

Yuqorida berilgan 9 va 10-jadvaldan ko'ringanidek, ingliz va o'zbek tillari direktiv nutqiy akti turli grammatik va madaniy vositalar orqali amalga oshiradi. Biroq

ikki tilni qiyoslaganda faqat farqlar emas, umumiyliklar ham muhimdir. Ikkalasida ham barcha direktiv shakllar mavjud, ikkalasida ham hissiy-direktivlarning aralash (gibrid) shakllar kuzatiladi, ikkalasida ham yumshatish strategiyalari qo'llaniladi. P.Nurhidaya va F.Boskachi tadqiqotlari ham shu umumiylikni imperativlar barcha madaniyatlarda oilaviy direktiv muloqotning asosiy vositasi bo'lishini tasdiqlaydiki, farqlar miqdoriy va strategik darajada ko'rinadi.

Ushbu tadqiqot bir nechta muhim nazariy va amaliy natijalarga ega. Nazariy jihatdan, ular ota-ona va farzand muloqotidagi direktiv diskursning kontrastiv pragmalingsvistik tahlili, illokutiv kuch tahlili, xushmuomalalik nazariyasi va madaniyatlararo pragmatik qiyoslashni talab qilishini ko'rsatadi. Yagona mukammal nazariya bo'lmagani sababli J.Ostinning nutqiy akt nazariyasi va J.Syorlning illokutiv nutqiy aktlar tafsifi asosiy nazariy asos qilib olinsa, P.Broun va S.Levinsonning xushmuomalalik modeli yumshatish taktikalari tahlili uchun mos keladi. Ingliz tilida yumshatish asosan leksik va sintaktik jihatdan, o'zbek tilida esa asosan morfologik jihatdan amalga oshiriladi. Bu farq ingliz tili (analitik) va o'zbek tili (agglyutinativ) o'rtasidagi asosiy tipologik qarama-qarshilikni aks ettiradi [Yohanson & Ksato, 1998; Chirsheva & Korovushkin, 2021]

O'zbek ota-ona va farzand muloqotida bilvosita direktivlarning nisbatan kamroq uchrashini e'tiborga olish maqsadga muvofiq. Bu holatda O'zbek ota-onalari farzandlarining yuzini kamroq hisobga oladi degan xulosaga kelish noto'g'ri bo'ladi. Chunki nutqiy vaziyat a'zolarining axloq normalari farqli bo'lgani sabab, har bir ma'noni tushunish bilan bog'liq tafovutlar uchraydi. Verjbika ta'kidlaganidek, bevosita imperativning madaniy ma'nosi qat'iy emas, balki nutq jamoasining kommunikativ me'yorlari bilan shakllanadi. K.Koshning fors-britaniyalik madaniyatlarining qiyosiy tadqiqoti bu nuqtai nazarni tasdiqlaydi. Bunda xuddi o'zbek madaniyatidagidek fors madaniyatida ham yuqori iyerarxiya, bevosita direktivni madaniy jihatdan me'yorlashtirilgan hokimiyat ifodasi sifatida qabul qiladi.

I.Morozova va A.Vakulenkoning tarixiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ingliz ota-ona diskursi ham tarixan avtoritar direktivlardan ko'ra hamkorlik strategiyalariga tayanadi. Shu jihatdan bugungi ingliz oilaviy muloqotidagi bilvosita va yumshatilgan direktivlar ustunligi tarixiy rivojlanish natijasi sifatida talqin qilinishi kerak.

Amaliy nuqtai nazardan, topilmalar chet til o'qitishi va madaniyatlararo muloqot o'qitishi uchun muhim ahamiyatga ega. D.Sabirova va D.Sulaymonova tadqiqotlari ko'rsatganidek, oilaviy murojaatning til-madaniy xususiyatlarini bilmaslik madaniyatlararo muloqotda noto'g'ri talqinlarga olib kelishi mumkin. O'zbek tilida so'zlashadigan muhitdan ingliz tili o'rganayotgan talabalar ingliz tilida direktiv yumshatishni boshqaradigan pragmatik tamoyillarni o'rganishi muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida ota-ona va farzand muloqotidagi direktiv nutqiy aktlarning kontrastiv pragmalingsvistik tahlilini taqdim etildi. Tadqiqot J.Ostin nutqiy akt nazariyasi, J.Syorlning illokutiv taksonomiyasi, P.Brown va

S. Levinson xushmuomalalik tamoyillari va Sh. Safarov hamda M. Hakimov tomonidan ifodalangan o'zbek pragmatik nazariyasiga asoslandi. F. Boskachi, P. Nurhidaya, K. Kosh, D. Sabirova, D. Sulaymonova, G. Chirsheva va P. Korovushkin, I. Morozova va A. Vakulenko, T. Grebenshchikova va Z. Karimova kabi tadqiqotchilarning zamonaviy tahlillari ishni yanada boyitdi va xulosalarni mustahkamladi.

Asosiy natijalarni quyidagicha umumlashtirish mumkin. Birinchidan, bevosita imperativlar o'zbek tilida ingliz tilidagi ota-ona va farzand direktiv diskursiga qaraganda ko'proq uchraydi (63,3% va 40%), bu o'zbek oilaviy madaniyatida ota-ona hokimiyatining madaniy jihatdan me'yoriy ekanligini aks ettiradi. Ikkinchidan, ingliz tilida direktiv kuchni yumshatish asosan leksik va sintaktik, o'zbek tilida esa asosan morfologik bo'lib, ikki til o'rtasidagi analitik va agglyutinatip tipologik qarama-qarshilikni aks ettiradi. Uchinchidan, bilvosita nutqiy aktlar ingliz tilida o'zbek tiliga qaraganda ko'proq uchraydi (28,3% va 13,3%). To'rtinchidan, ikki tilda ham ekspressiv-direktiv aralash ifodalar mavjud bo'lib, bu ota-ona direktiv diskursining madaniyatlararo universalini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Austin, J. L. (1962). *How to do things with words*. Oxford, England: Oxford University Press.
2. Baymuradova, L. (2024). Nutqiy faoliyat tahlili va nutqiy strategiya ifodasi. *O'zMU xabarleri (ACTA NUUZ)*, 1(6/1), 294–296.
3. Blum-Kulka, S., House, J., & Kasper, G. (1989). *Cross-cultural pragmatics: Requests and apologies*. Norwood, NJ: Ablex.
4. Boscacci, F. (2020). *Mother-child interactions in a bilingual family* (Doctoral dissertation, University of Massachusetts Dartmouth). <https://doi.org/10.62791/19829>
5. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge, England: Cambridge University Press.
6. Chirsheva, G. N., & Korovushkin, P. V. (2021). Pragmatic functions of child code-switching. *Vestnik Volgograd State University*, 20(4), 102–112. <https://doi.org/10.15688/jvolsu2.2021.4.8>
7. Clancy, P. M. (1986). The acquisition of communicative style in Japanese. In B. B. Schieffelin & E. Ochs (Eds.), *Language socialization across cultures* (pp. 213–250). Cambridge, England: Cambridge University Press.
8. Grebenshchikova, T. A. (2012). K postroeniyu modeli taktiki diskursivnogo vozdeystviya v mezhlichnostnom obshchenii v semye. *Vestnik Kostromskogo Gosudarstvennogo Universiteta*, 18, 45–48.
9. Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), *Syntax and semantics* (Vol. 3, pp. 41–58). New York, NY: Academic Press.
10. Hakimov, M. X. (2001). *O'zbek tili matnining pragmatik talqini* (Doctor of Science dissertation). Farg'ona, Uzbekistan.
11. Huddleston, R., & Pullum, G. K. (2002). *The Cambridge grammar of the English language*. Cambridge, England: Cambridge University Press.
12. Johanson, L., & Csátó, E. A. (1998). *The Turkic languages*. London, England: Routledge.
13. Kameh Khosh, N. (2021). Politeness strategies in discourse. *Philology. Theory & Practice*, 14(7), 2265–2271. <https://doi.org/10.30853/phil210360>
14. Karimova, Z. G. (2021). *O'zbek va ingliz tillarida so'z-gaplarning sotsiopragmatik xususiyatlari* (PhD dissertation). Toshkent, Uzbekistan.
15. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge, England: Cambridge University Press.
16. Maslova, A. Y. (2014). *Vvedenie v pragmatik*. Moscow, Russia: Flinta.

17. Morozova, I. I., & Vakulenko, A. I. (2023). British parental discourse. *Kharkiv National University Bulletin*, 97, 22–29. <https://doi.org/10.26565/2786-5312-2023-97-03>
18. Nurhidayah, P., Raja, P., & Setiyadi, B. (2024). Speech act in family conversation. *International Journal of Social Science and Human Research*, 7(1), 759–761. <https://doi.org/10.47191/ijsshr/v7-i01-98>
19. Ochs, E., & Schieffelin, B. B. (1984). Language acquisition and socialization. In R. A. Shweder & R. A. LeVine (Eds.), *Culture theory: Essays on mind, self and emotion* (pp. 276–320). Cambridge, England: Cambridge University Press.
20. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. (1985). *A comprehensive grammar of the English language*. London, England: Longman.
21. Sabirova, D. (2023). Functional analysis of address forms in the family discourse. *International Journal of Advanced Research in Science, Communication and Technology*, 3(5), 85–88. <https://doi.org/10.48175/IJARSCCT-9326>
22. Safarov, Sh. (2008). *Pragmalingvistika*. Toshkent, O'zbekiston.
23. Searle, J. R. (1969). *Speech acts: An essay in the philosophy of language*. Cambridge, England: Cambridge University Press.
24. Searle, J. R. (1975). Indirect speech acts. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), *Syntax and semantics* (Vol. 3, pp. 59–82). New York, NY: Academic Press.
25. Searle, J. R. (1979). *Expression and meaning: Studies in the theory of speech acts*. Cambridge, England: Cambridge University Press.
26. Sifianou, M. (1992). *Politeness phenomena in England and Greece: A cross-cultural perspective*. Oxford, England: Oxford University Press.
27. Sperber, D., & Wilson, D. (1986). *Relevance: Communication and cognition*. Oxford, England: Blackwell.
28. Sulaymonova, D. (2022). Oilaviy muloqotdagi murojaatning lingvomadaniy xususiyatlari. *Oriental Renaissance*, 2(5/2), 298–304.
29. Trosborg, A. (1995). *Interlanguage pragmatics: Requests, complaints and apologies*. Berlin, Germany: Mouton de Gruyter.
30. Wierzbicka, A. (1991). *Cross-cultural pragmatics: The semantics of human interaction*. Berlin, Germany: Mouton de Gruyter.

REFERENCES

1. Austin, J. L. (1962). *How to do things with words*. Oxford, England: Oxford University Press.
2. Baymuradova, L. (2024). Analysis of speech activity and the expression of speech strategies. *National University of Uzbekistan Bulletin (ACTA NUUZ)*, 1(6/1), 294–296.
3. Blum-Kulka, S., House, J., & Kasper, G. (1989). *Cross-cultural pragmatics: Requests and apologies*. Norwood, NJ: Ablex.
4. Boscacci, F. (2020). *Mother-child interactions in a bilingual family* (Doctoral dissertation, University of Massachusetts Dartmouth). doi:10.62791/19829
5. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge, England: Cambridge University Press.
6. Chirsheva, G. N., & Korovushkin, P. V. (2021). Pragmatic functions of child code-switching. *Vestnik Volgograd State University*, 20(4), 102–112. doi:10.15688/jvolsu2.2021.4.8
7. Clancy, P. M. (1986). The acquisition of communicative style in Japanese. In B. B. Schieffelin & E. Ochs (Eds.), *Language socialization across cultures* (pp. 213–250). Cambridge, England: Cambridge University Press.
8. Grebenshchikova, T. A. (2012). Toward a model of discourse influence tactics in interpersonal family communication. *Bulletin of Kostroma State University*, 18, 45–48.
9. Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), *Syntax and semantics* (Vol. 3, pp. 41–58). New York, NY: Academic Press.
10. Hakimov, M. X. (2001). *Pragmatic interpretation of Uzbek language texts* (Doctor of

- Science dissertation). Fergana, Uzbekistan.
11. Huddleston, R., & Pullum, G. K. (2002). *The Cambridge grammar of the English language*. Cambridge, England: Cambridge University Press.
 12. Johanson, L., & Csató, E. A. (1998). *The Turkic languages*. London, England: Routledge.
 13. Kameh Khosh, N. (2021). Politeness strategies in discourse. *Philology. Theory & Practice*, 14(7), 2265–2271. doi:10.30853/phil210360
 14. Karimova, Z. G. (2021). *Sociopragmatic features of sentence-words in Uzbek and English* (PhD dissertation). Tashkent, Uzbekistan.
 15. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge, England: Cambridge University Press.
 16. Maslova, V. A. (2014). *Introduction to pragmalinguistics*. Moscow, Russia: Flinta.
 17. Morozova, I. I., & Vakulenko, A. I. (2023). British parental discourse. *Kharkiv National University Bulletin*, 97, 22–29. doi:10.26565/2786-5312-2023-97-03
 18. Nurhidayah, P., Raja, P., & Setiyadi, B. (2024). Speech acts in family conversation. *International Journal of Social Science and Human Research*, 7(1), 759–761. doi:10.47191/IJSSHR/V7-I01-98
 19. Ochs, E., & Schieffelin, B. B. (1984). Language acquisition and socialization. In R. A. Shweder & R. A. LeVine (Eds.), *Culture theory: Essays on mind, self and emotion* (pp. 276–320). Cambridge, England: Cambridge University Press.
 20. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. (1985). *A comprehensive grammar of the English language*. London, England: Longman.
 21. Sabirova, D. (2023). Functional analysis of address forms in family discourse. *International Journal of Advanced Research in Science, Communication and Technology*, 3(5), 85–88. doi:10.48175/IJARSCT-9326
 22. Safarov, Sh. (2008). *Pragmalinguistics*. Tashkent, Uzbekistan: Fan.
 23. Searle, J. R. (1969). *Speech acts: An essay in the philosophy of language*. Cambridge, England: Cambridge University Press.
 24. Searle, J. R. (1975). Indirect speech acts. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), *Syntax and semantics* (Vol. 3, pp. 59–82). New York, NY: Academic Press.
 25. Searle, J. R. (1979). *Expression and meaning: Studies in the theory of speech acts*. Cambridge, England: Cambridge University Press.
 26. Sifianou, M. (1992). *Politeness phenomena in England and Greece: A cross-cultural perspective*. Oxford, England: Oxford University Press.
 27. Sperber, D., & Wilson, D. (1986). *Relevance: Communication and cognition*. Oxford, England: Blackwell.
 28. Sulaymonova, D. (2022). Linguocultural features of forms of address in family communication. *Oriental Renaissance*, 2(5/2), 298–304.
 29. Trosborg, A. (1995). *Interlanguage pragmatics: Requests, complaints and apologies*. Berlin, Germany: Mouton de Gruyter.
 30. Wierzbicka, A. (1991). *Cross-cultural pragmatics: The semantics of human interaction*. Berlin, Germany: Mouton de Gruyter.